

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASHGA, KREDIT AXBOROTINI, BANK KARTALARI VA DAROMADLAR HAQIDAGI MA'LUMOTLARNI OLISHGA ROZILIK

Ushbu hujjat maqsadlarida quyidagi atamalar va ta'riflar qo'llaniladi:

Bank - "Ipoteka-bank" aksiyadorlik tijorat ipoteka banki.

Diler - yuridik shaxs - dilerlik markazi bo'lib, Bank bilan tuzilgan shartnoma asosida ATIB "Ipoteka-bank" tomonidan Mijoz ma'lumotlarini yig'ish, ularni Servisga kiritish hamda avtokredit bo'yicha arizalarni Bankka yuborish vakolatiga ega; faqat texnik vositachi sifatida harakat qiladi va Mijozning shaxsiy ma'lumotlari operatori hisoblanmaydi;

Mijoz - dilerlik markazida avtomobil sotib olishni va Bank tomonidan taqdim etiladigan avtokreditdan foydalanishni istovchi jismoniy shaxs;

Kredit byurosi - "Kredit-axborot tahliliy markazi" kredit byurosi, qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etilgan hamda kredit axboroti almashinuvi bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

Car loan xizmati - FlowX platformasi bazasida ATIB "Ipoteka-bank" tomonidan taqdim etiladigan kredit arizalarini topshirish xizmati bo'lib, Diler tomonidan Mijoz ma'lumotlarini kiritish orqali avtokredit arizasini rasmiylashtirish, shuningdek, OTP-kod orqali Mijoz roziligini qayd etish uchun mo'ljallangan;

OTP-kod (bir martalik parol) - Bank tomonidan Mijozga SMS orqali yuboriladigan, Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga, kredit axborotini olishga, daromadlar va bank kartalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olishga, shuningdek, arizani rasmiylashtirish va ko'rib chiqish bilan bog'liq boshqa harakatlarni tasdiqlash uchun mo'ljallangan noyob raqamli kod.

Ushbu shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga, kredit axborotini, bank kartalari va daromadlar haqidagi ma'lumotlarni olishga rozilik (keyingi o'rinlarda - **"Rozilik"**) Diler orqali Car loan xizmatidan foydalangan holda avtokredit arizasini rasmiylashtirishda Bank tomonidan Mijozning shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarini qayta ishlashni tartibga soladi.

Ushbu Rozilik quyidagilarga muvofiq taqdim etiladi:

- O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi № O'RQ-547 "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 04.10.2011 yildagi № O'RQ-301 "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlari.

Mijoz tomonidan Bankdan SMS orqali olingan bir martalik kodni (One time password / OTP-kod) Dilerga taqdim etish - Mijozning ushbu hujjatdagi barcha shartlarga to'liq, so'zsiz, muddatsiz, xabardor va ixtiyoriy roziligini anglatadi.

1. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash

Mijoz ushbu bilan Bankka quyidagi huquqlarni beradi:

1.1. Quyidagi shaxsiy ma'lumotlarni olish va qayta ishlash:

- F.I.Sh.;
- tug'ilgan sana;
- pasport/ID ma'lumotlari;
- JShShIR (mavjud bo'lsa);
- ro'yxatdan o'tgan/yashash manzili;
- aloqa telefoni raqami;
- ariza rasmiylashtirilishida Mijoz tomonidan Dilerga yoki Bankka taqdim etilgan ma'lumotlar;
- sessiya/ariza identifikatori, OTP-kod orqali rozilikni qayd etish uchun zarur texnik parametrlar.

1.2. Shaxsiy ma'lumotlarni avtomatlashtirish vositalari bilan yoki ularsiz bajariladigan harakat(operatsiya) yoki harakatlar majmuasi orqali qayta ishlash, jumladan:

- yig'ish;
- yozib olish;
- tizimlashtirish;
- jamlash;
- saqlash;
- aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish);
- ajratib olish;
- foydalanish;
- uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish imkonini berish);
- shaxssizlantirish;
- bloklash;
- o'chirish;
- shaxsiy ma'lumotlarni yo'q qilish.

1.3. Ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan Bank axborot tizimlarida, shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiq saqlash.

Transchegaraviy uzatishga faqat qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda yo'l qo'yiladi.

1.4. Ma'lumotlardan faqat quyidagi maqsadlarda foydalanish:

- Mijozni identifikatsiya qilish;

- avtokredit arizasini rasmiylashtirish va ko‘rib chiqish;
- skoring va boshqa tekshiruvlarni o‘tkazish;
- jinoyat yo‘li bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurollari tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha talablarga rioya etish, jumladan identifikatsiya, verifikatsiya, operatsiyalar monitoringi va risklarni baholash tartib-taomillari (O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq), Bankning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- kredit hujjatlarini tayyorlash va tuzish;
- qonunchilik talablarini bajarish.

2. Kredit axborotini olish va qayta ishlash

Mijoz ushbu bilan Bankka quyidagi huquqlarni beradi:

2.1. Kredit byurosi hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa manbalardan Mijozning kredit tarixi haqida ma’lumotlarni so‘rash va olish.

2.2. Kredit axborotidan quyidagi maqsadlarda foydalanish:

- kreditga layoqatlilikni baholash;
- avtomatlashtirilgan skoring;
- avtokredit bo‘yicha qaror qabul qilish;
- kredit berilgandan so‘ng Mijoz majburiyatlarini monitoring qilish.

2.3. “Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan tartibda Mijozning majburiyatlarni bajarishi jarayoni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Kredit byurosiga taqdim etish.

3. Mijozning bank kartalari va daromadlari haqida ma’lumot olish

Mijoz Bankka quyidagi huquqlarni beradi:

3.1. Bank tomonidan yoki boshqa banklar tomonidan chiqarilgan, integratsiyalar va vakolatli tizimlar orqali mavjud bo‘lgan Mijoz bank kartalari haqida ma’lumotlarni olish.

3.2. Mijoz daromadlari haqida ma’lumotlarni olish, jumladan:

- Bankdagi Mijoz kartalari va hisobvaraqlariga tushumlar;
- davlat axborot tizimlari va qonun bilan ruxsat etilgan boshqa manbalardan ma’lumotlar;
- Mijoz tomonidan Dilerga yoki Bankka taqdim etilgan ma’lumotlar.

3.3. Bunday ma’lumotlardan quyidagi maqsadlarda foydalanish:

- to‘lovga qobiliyatlikni tasdiqlash;
- kreditni xizmat ko‘rsatish (to‘lash) imkoniyatini baholash;

- avtokredit bo'yicha qaror qabul qilish;
- jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollari tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida tekshiruvlar o'tkazish;
- qonunchilik talablarini bajarish.

4. Dilerning roli va o'zaro hamkorlik tartibi

Mijoz ushbu bilan tasdiqlaydi va rozilik bildiradiki:

4.1. Diler faqat texnik vositachi sifatida harakat qiladi, Mijoz ma'lumotlarini Servisga kiritadi va Mijozning shaxsiy ma'lumotlari operatori/egasi hisoblanmaydi.

4.2. Diler avtokredit berish haqida qaror qabul qilmaydi va o'z nomidan kredit tarixini so'ramaydi.

4.3. Barcha ma'lumotlar Diler tomonidan qat'iy ravishda Mijoz topshirig'iga binoan va Bankka ariza topshirish uchun zarur hajmda kiritiladi.

4.4. OTP-kod Mijoz tomonidan Bankka taqdim etiladi.

Diler faqat Mijoz ko'rsatmasi bo'yicha kodni Servisga kiritadi, uni nusxalash, saqlash yoki uchinchi shaxslarga berish huquqiga ega emas.

4.5. Dilerga quyidagilar taqiqlanadi:

- Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini Servisdan tashqarida nusxalash yoki saqlash;
- OTP-kodni qayd etish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlardan tashqari ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berish.

4.6. Diler ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi va xavfsizlik hodisalari haqida Bankni xabardor qilishi shart.

5. OTP-kod orqali rozilik berish tartibi

5.1. Bank Mijozga OTP-kod va ushbu hujjatga havola keltirilgan SMS yuboradi.

5.2. Mijoz tomonidan OTP-kodni Servisga kiritish uchun Dilerga berish shuni anglatadiki, Mijoz:

- Rozilik matni bilan tanishgan;
- ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadi va hajmini tushunadi;
- ushbu hujjatda ko'rsatilgan barcha qayta ishlash turlariga Bankka ruxsat beradi.

5.3. Bank rozilik faktini qayd etadi, jumladan:

- OTP-kod kiritilgan sana/vaqt;
- ariza va Diler identifikatori;

- hujjat versiyasi;
- zarur texnik parametrlar.

6. Rozilikning amal qilish muddati va uni bekor qilish

6.1. Rozilik quyidagicha amal qiladi:

- arizani ko‘rib chiqish yakunlangunga qadar;
- kredit berilgan taqdirda - Mijoz majburiyatlarini to‘liq bajarguniga qadar;
- qonunchilikda belgilangan ma’lumotlarni saqlash muddatlari doirasida.

6.2. Mijoz xabardor qilingan: u istalgan vaqtda Bankning ichki hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Bankka murojaat yuborish orqali shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga bergan roziligini bekor qilish huquqiga ega.

Rozilikni bekor qilish, Bank bunday bekor qilishni olguniga qadar amalga oshirilgan qayta ishlashning qonuniyligiga ta’sir qilmaydi hamda arizani keyinchalik ko‘rib chiqishni imkonsiz qilishi mumkin.

7. Shaxsiy ma’lumotlar subyekti sifatida Mijozning huquqlari

7.1. Mijoz O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunida nazarda tutilgan huquqlari, jumladan shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlashga oid quyidagi ma’lumotlarni olish huquqi unga tushunarli ekanligini tasdiqlaydi:

1. shaxsiy ma’lumotlar qayta ishlanayotganligi faktini tasdiqlash;
2. shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash asoslari va maqsadlari;
3. shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash usullari;
4. operatorning nomi va joylashgan manzili, shuningdek shaxsiy ma’lumotlarga kirish huquqiga ega bo‘lgan yoki shartnoma/yoki qonun asosida shaxsiy ma’lumotlar oshkor qilinishi mumkin bo‘lgan shaxslar haqidagi ma’lumotlar;
5. Mijozga taalluqli qayta ishlanayotgan shaxsiy ma’lumotlar tarkibi va ularni olish manbai (qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa);
6. shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash muddatlari, jumladan ularni saqlash muddatlari;
7. shaxsiy ma’lumotlar subyekti huquqlarini amalga oshirish tartibi;
8. shaxsiy ma’lumotlarning amalga oshirilgan yoki rejalashtirilayotgan transchegaraviy uzatilishi haqidagi axborot.

7.2. Mijoz, shuningdek, mazkur huquqlarni amalga oshirish bilan bog‘liq so‘rovlarni Bankka yuborish huquqi borligi haqida xabardor.

8. Elektron tasdiqlashning yuridik kuchi

8.1. O‘zbekiston Respublikasining elektron hujjat aylanishi to‘g‘risidagi qonunchiligiga muvofiq, Tomonlar Bank tomonidan yuborilgan va Mijoz tomonidan (shaxsan yoki uning topshirig‘i bilan Diler xodimi orqali) kiritilgan OTP-kod orqali rozilikni tasdiqlash qog‘oz hujjatni imzolashga tenglashtirilishini va bir xil yuridik kuchga ega ekanligini tan oladilar.

8.2. Agar Mijoz ushbu hujjat shartlariga rozi bo‘lmasa, u na Bank xodimiga, na Diler vakiliga OTP-kodni taqdim etmasligi va OTP-kodni Servisga kiritmasligi lozim.

9. Bank javobgarligini cheklash

9.1. Bank quyidagi holatlar natijasida yuzaga kelgan Mijozning har qanday zarar(lar)i uchun javobgar bo‘lmaydi:

- Mijozning ushbu Rozilik matni bilan tanishmaganligi, to‘liq tanishmaganligi yoki o‘z vaqtida tanishmaganligi;
- Mijoz tomonidan Bankning istalgan hamkorlariga axborot taqdim etilishi va bunday taqdim etish oqibatlari.

10. Aloqa ma’lumotlari

Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash, shaxsiy ma’lumotlar subyekti huquqlarini amalga oshirish, shuningdek rozilikni bekor qilish bilan bog‘liq murojaatlar Mijoz tomonidan Bankning quyidagi aloqa manzillariga yuborilishi mumkin:

Manzil: 100000, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Shahrisabz ko‘chasi, 30-uy

Elektron pochta: info@ipotekabank.uz

Kontakt-markaz telefoni: +998 (78) 150-11-22

Faks: +998 (78) 150-98-25

Bank Mijozlarning murojaatlarini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatlar va tartibda ko‘rib chiqadi.